

# TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11401517>

**Tursunov Ilxom Toirovich**

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya  
akademiyasi mustaqil izlanuvchisi*

***Annotatsiya.** Mazkur ilmiy tijorat banklari kredit portfelini optimallashtirish orqali ularni moliyaviy barqarorligini ta'minlashning ustuvor jihatlari bayon etilgan. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining kredit portfeli va undagi muammoli kreditlarning ulushi bo'yicha amaliy ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, tijorat banklari kredit portfelini optimallashtirishga doir ilmiy takliflar keltirilgan.*

***Tayanch so'zlar:** tijorat banklari, muammoli kredit, zaxira, qimmatli qog'og'lar, investitsiyalar, moliyaviy barqarorlik, qayta moliyalashtirish stavkasi, iqtisodiyot, samaradorlik.*

O'zbekiston Respublikasi bank tizimining samaradorligini oshirish iqtisodiyotning real sektorini kreditlashda banklarning faol ishtirok etishi bilan bog'liqdir. Biroq, mamlakatimiz tijorat banklari kreditlash faoliyatini olib borishda bir qancha qiyinchilik va muammolarga duch kelmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda tijorat banklarining daromad keltiruvchi aktivlarining asosiy qismini tashkil etuvchi kreditlar orasida muammoli aktivlarning mavjudligi sezilarli bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «muammoli kreditlarni qaytarish banklarning imkoniyatlarini yanada kengaytirishini, ularni undirish bo'yicha banklar, qarzdor korxonalar, kompaniya va uyushmalar, hududlar rahbarlari birgalikda ish olib borishi zarurligi lozim» [1]. Kredit portfeli sifati va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlari o'sishining mo'tadil darajasiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro miqyosda amaliy tajribaga ega bo'lgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab berilgan.

Keyingi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar bank tizimini milliy iqtisodiyotdagi rolini oshishiga xizmat qilishi bilan bir qatorda sohada

muammoli kreditlarning ulushini ortib borayotganligi tijorat banklari nafaqat moliyaviy barqarorligiga ta'sir etmoqda balki kapitaldan foydalanish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. 2024 yilning 1 mart holatiga ko'ra Respublika tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar xajmi 472407 mlrd. so'mni tashkil etayotgan bo'lsa, shundan muammoli kreditlar 4,4 foizni yoki 20850 mlrd. so'mga yetgan (1-jadval). 2023-yil I yarim yillikda kredit qoldig'ining yillik o'sish sur'ati 23 foizni tashkil etgan bo'lsada, bank tizimi bo'yicha muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi barqaror saqlanib qoldi. Xususan, 2023-yilning 1-iyul holatiga NPLning jami kreditlardagi ulushi 3,4 foizga teng bo'ldi. Tizimli ahamiyatga molik banklarda NPL ulushining so'nggi ikki yillikdagi pasayuvchi tendensiyasi joriy yilda ham davom etdi va 2023-yilning 1-iyul holatiga ko'ra 3,8 foizni tashkil etdi. Muammoli kreditlarning tizimli ahamiyatga molik banklarda boshqa banklarga nisbatan ma'lum darajada yuqori bo'lishini asosan direktiv kreditlar ajratilishi bilan izohlash mumkin. 2023-yilning I yarim yilligida muammoli kreditlarni qoplash koeffitsiyentining o'sish tendensiyasini davom etishi NPL bo'yicha ehtimoliy zararlarni qoplash maqsadida yaratilgan zaxiralar bilan ta'minlanganlik darajasi oshganligini ifodalaydi.

### 1-jadval

#### Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'rsida ma'lumot [2]

mlrd.so'm

№	Bank nomi	Kreditlar	Muammoli kreditlar* (NPL)	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi
<b>Jami</b>		<b>472 407</b>	<b>20 850</b>	<b>4,4%</b>
<b>Davlat ulushi mavjud banklar</b>		<b>331 151</b>	<b>16 142</b>	<b>4,9%</b>
1	O'zmilliybank	98 797	3 400	3,4%
2	O'zsanoatqurilishbank	57 397	2 489	4,3%
3	Agrobank	54 498	2 020	3,7%
4	Asaka bank	38 398	1 875	4,9%
5	Xalq banki	24 666	1 841	7,5%
6	Biznesni rivojlantirish b.	21 104	2 905	13,8%
7	Mikrokreditbank	14 199	912	6,4%
8	Turon bank	12 073	305	2,5%

9	Aloqa bank	9 938	394	4,0%
10	Poytaxt bank	81	0,1	0,1%
	<b>Boshqa banklar</b>	<b>141 256</b>	<b>4 709</b>	<b>3,3%</b>
11	Ipoteka-bank	37 488	3 019	8,1%
12	Kapital bank	26 978	490	1,8%
13	Hamkorbank	16 445	120	0,7%
14	Ipak yo‘li bank	11 962	111	0,9%
15	Orient Finance bank	8 873	2	0,0%
16	Invest Finance bank	6 414	131	2,0%
17	Trastbank	5 286	107	2,0%
18	Davr bank	5 176	44	0,8%
19	Tibisi bank	4 190	87	2,1%
20	Tenge bank	3 989	142	3,5%
21	Asia Alliance bank	3 965	46	1,2%
22	Anor bank	3 301	64	1,9%
23	KDB Bank O‘zbekiston	2 700	0,0	0,0%
24	Ziraat Bank Uzbekistan	1 682	51	3,0%
25	Universal bank	1 257	15	1,2%
26	Garant bank	894	85	9,5%
27	Madad Invest bank	286	80	28,0%
28	Oktobank	146	111	75,6%
29	Hayot bank	59	0,0	0,0%
30	Uzum bank	50	0,0	0,0%
31	Yangi bank	48	0,0	0,0%
32	Apeks bank	32	0,0	0,0%
33	Eron Soderot bank ShB	19	4	20,1%
34	AVO bank	15	0,0	0,0%
35	Smart bank	0,2	0,0	0,0%

\*2024 yilning 1 mart holatiga

Xususan, muammoli kreditlarni qoplash koeffitsiyenti 2023-yil 1-iyul holatiga 48 foizga yetdi va muammoli kreditlar ulushining keskin o‘sishi kuzatilgan “Covid-19” pandemiyasidan oldingi davrdagi darajasiga yaqinlashdi. Muammoli kreditlarni qoplash koeffitsiyentining yuqori darajasi banklarning nafaqat kreditlar bo‘yicha yo‘qotishlarga, balki boshqa kutilmagan yo‘qotishlarga ham yetarli darajada bardoshlilikini ta’minlash imkonini beradi.

2023-yilning I yarim yilligida bank tizimida zaxira bilan ta’minlanmagan muammoli kreditlarning kapitalga nisbati ko‘rsatkichi pasayishda davom etdi. 2023-yil 1-iyul holatiga zaxiralar chegirilgan holdagi muammoli kreditlarning regulyativ

kapitalga nisbati o'tgan yilning mos davriga nisbatan qariyb 5 foiz bandga kamayib, 8 foizni tashkil etdi. Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushining pasayish dinamikasi asosan NPL hajmining kamayishi hamda jami kreditlar qoldig'ining o'sishi hisobiga kuzatildi. Ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda valyuta almashuv kursining barqarorligi hisobiga uning NPLning jami kreditlardagi ulushiga ta'siri sezilarsiz bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi kamayish tendensiyasiga ega bo'lib, Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlari bo'yicha 25 protsentil chegarasiga yaqinlashib bordi. Xususan, 2023-yil 1-iyul holatiga O'zbekistonda muammoli kreditlar ulushi 3,4 foizni tashkil etib, ushbu mintaqaning mediana ko'rsatkichini ifoda etdi. Shuningdek, 2022-yil yakuniga ko'ra nominal ish haqining o'sishi Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasidagi Armaniston, Gruziya, Tojikiston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston kabi davlatlarda inflyatsiya darajasidan yuqori shakllandi. Ushbu mintaqada iqtisodiy faollikning tiklanishi va real ish haqi miqdorining ortishi kredit olgan mijozlarning qarzga xizmat ko'rsatishini yengillashtirmoqda. Ushbu ijobiy o'zgarish, 2023-yil I yarim yilligida Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlari banklarining kredit portfeli sifatini yaxshilanishida o'z aksini topdi. Muammoli kreditlar tarkibida sifatlari "qoniqarsiz", va "shubhali" tasniflangan kreditlarning ulushlari deyarli bir xil taqsimlangan. Xususan, 2023-yilning I yarim yilligi yakuniga ko'ra, "qoniqarsiz" va "shubhali" kreditlarning ulushlari 31–32 foiz atrofida, "umidsiz" kreditlar esa jami muammoli kreditlarning 37 foizini tashkil etdi. Yuqoridagi 2023-yil I yarim yilligi uchun bank tizimi bo'yicha tahlil natijalari O'zbekiston bank tizimida moliyaviy barqarorlik saqlanib qolinganligini hamda tashqi va ichki xatarlarga nisbatan bardoshlilikini ko'rsatdi.

Bankning kredit portfelini samarali boshqarishda bir qancha usullardan foydalanish mumkin. Kredit portfelining diversifikatsiyasi – bu bankning ba'zi mijozlardan ko'rgan zararlarini boshqa mijozlardan ko'rgan daromad hisobidan qoplash maqsadida bankning kredit resurslarini kam miqdorda ko'p sonli mijozlar o'rtasida taqsimlashi tushuniladi. Diversifikatsiyalashni uch xil yo'nalish bo'yicha

olib borish mumkin. Bular portfel, geografik va kreditlarni to‘lash muddatiga qarab o‘tkaziladigan diversifikatsiya turlaridir. Banklarning kredit portfelini diversifikatsiya qilish bankning kreditlarini har xil sohadagi bir necha mijozlar o‘rtasida taqsimlashni o‘z ichiga oladi. Diversifikatsiya qilinmagan bank portfeli doimo yuqori risk bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli, tijorat banklarining aktivlarini shu jumladan, kreditlarni diversifikatsiyalash bank faoliyatida muhim o‘rin egallaydi. Xalqaro amaliyotda NPL ko‘rsatkichining yuqori havfli nuqtasi 3% ekanini inobatga olgan holda, mamlakatimizdagi tijorat banklaridagi NPL ko‘rsatkichini kamaytirish yuzasidan qonunchilikda belgilangan barcha mexanizmlardan samarali foydalanish zarur bo‘ladi.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Bank tizimida transformatsiya va xususiylashtirish jarayonlari” muhokamasi bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilish. <https://president.uz/oz/lists/view/6875>
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yilliy hisobotlari - <https://cbu.uz/uz/financial-stability/report/>
3. Azlarova A.A. Tijorat banklarida kredit portfelini samarali boshqarish masalalari//“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2018 yil.
4. Kalandarov A.B. Banklardagi muammoli kreditlarni nazorat qilishda NPL ko‘rsatkichlarining ahamiyati//Innovatsion texnologiyalar № 2(42)-2021.